

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVRIDA AYOLLAR O'RNI

*Mamatova Xilola Muhiddinovna,  
Guliston Davlat Pedagogika Instituti p.f.b.f.d (PhD)  
[hilol-777@mail.ru](mailto:hilol-777@mail.ru)*

*Hamdamova Dilobar Umidjon qizi  
Guliston Davlat Pedagogika Instituti  
Pedagogika yo'nalishi I bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Temuriylar haqida so'z ketganida, jahon tarixida kam uchraydigan hodisa bu – sulola vakillaridan oqila, tadbirkor, savodi mukammal, yuksak madaniyat sohibalari va shu bilan birgalikda davlat boshqaruvida o'z o'miga ega malikalar yetishib chiqqan. Ularning jasorat bobida tengsizligi, farzand tarbiyasi, oilani boshqarish, davlat boshqaruvida ishtiroklari beqiyosdir.

### **Kirish**

Temuriylar tarjimai hollariga nazar tashlasak, aqlni lol qoldiradigan darajada voqealarga boy ekanligini ko'ramiz. Bu davlatning qudratli bo'lishida shahzodalarning yetuk tarbiyasi va davlat ishlarida Saroymulkxonimning o'rni beqiyosdir. Saroymulkxonim Amir Temurning katta xotini Chig'atoy ulusi xoni Qozog'onning qizi. Xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdag'i malikalarning ichida ulug'rog'i bo'lganligi sababli "Katta xonim", Bibixonim degan unvonga sazovor bo'lgan. Tarixiy manbalarda, vatanni sevuvchi, mamlakat ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan va saltanat ishlarida qatnashib turganligi keltirilgan. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratgan va saroy tolibi ilmlarga homiylik qilganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Saroymulkxonim Sohibqironning nafaqat rafiqasi balki yaqin maslahatchisi, ham bo'lgan. Amir Temur yurishlari davrida Movarounnahr boshqaruvini ishonch bilan topshirgan. Bibixonimning o'z farzandlari bo'lmasada, Amir Temurning nabiralari-Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Ulug'bek va boshqa mirzolarni bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi. Bibixonim bilan bir qatorda Shohruh Mirzoning xotini bo'lgan Gavharshodbegim husn-u latofatda tengsiz, o'z aql idroki bilan shuhrat qozongan. Malika qat'iyatlari va shijoatkor edi.

U o'z farzandlarining tarbiyasida nihoyatda e'tiborli bo'lgan. Turmush o'rtog'i bo'lgan Shohruh Mirzo nihoyatda halim tabiat, madaniyatli kishi bo'lib, farzand va nabiralari tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan hamda ularni dunyoga keltirgan malikalarning hurmatini hamisha o'z o'miga qo'ygan. Farzandi Mirzo Ulug'bek onasi to'g'risida shunday deydi :"Onamning ismi-yu ko'zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar edi". Temuriylarning yana bir avlodni Boburga to'xtaladigan bo'lsak, O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'z o'miga ega bo'lgan shoир, olim, mashhur podshoh va sarkarda bo'lganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Boburning otasi Umar shayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli erta olamdan o'tadi. Taxtiga esa hali voyaga yetib ulgurmagan 12 yoshli Bobur o'tiradi. Unga davlat boshqaruvi ishlarida aql zakovati kuchli, oqila va mehribon onasi yordam beradi.

Davlat boshqaruvini ayollar ham boshqarganligi bizga yot emas. Qutlug' Nigorxonim farzand tarbiyasida adashmaganligi, ma'rifatparvar va talabchan ustoz bo'lganligini tarixiy manbalar isbotlab o'tgan. Temuriylar davlatini inqirozdan saqlab qolgan, o'g'li bilan bir qancha qiyinchiliklar ko'rgan va umrining ma'lum bir qismi darbadarlikda o'tgan Qutlug' Nigorxonim davlatni o'z holicha qo'yib qo'ymadni. Bobur onasini nihoyatda yaxshi ko'rар va hurmat qilar edi. Shahzoda birgina o'z onasiga emas, balki barcha onalarga himmatini, ayollariga vafodor yor bo'lganligini va mehribon ota ekanligini bilamiz. Misol uchun Hind hukmdori Ibrohim Lo'diyning onasi malika Bayda Boburni zaharlab o'ldirmoqchi bo'ladi. Bobur siyosatida andisha, afv etish,



muhtojlarga ko'mak berish xislati hamisha ustun bo'lganligi uchun ham Bayda Bobur huzuriga uzr so'rab tiz cho'kkanida uni turg'izadi va jazolash o'rniga unga saroydan joy beradi hamda yangi hayot baxsh etadi. Bu bilan mardlik va tantilikning, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishning o'z namunasini ko'rsatadi. Bobur Mirzo o'z faoliyati davrida bir qancha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, qiynaladi, iztirob chekadi va dushmanlar qurshovida qoladi.

Biroq shu kunlarini "g'aflat paytlari" deb eslab o'tadi. Bobur aql – zakovat bilan ish yurutib, doimo olg'a intiladi va Mohimbegimning dono maslahati bilan g'animlarni yengadi. Manbalardan misol qilsak, Margaret Rumer Godenning "Gulbadan" nomli asarida Mohimbegimning aqlu farsoati, zukkoligi, oqilaligi, sadoqat bobidagi tuyg'ulari benazir edi. Shu bilan bir vaqtida rashkchi ham bo'lgan. Muallif o'z asarida Sultonlar balki ularning onalari, rafiqqa va qizlari haqida ham o'zining shaxsiy fikrlarini bayon etadi. Mohimbegim haqida "Mohimbegim deb o'z mulohazalarini keltirib o'tadi. Mohimbegim bunday rashkchi bo'lishi o'sha davr ayollariga xos fazilat edi. Chunki ayollarning barchasi hukmdorlar uchun chiroyli va suyukli bo'lishni orzu qilar edi. Saroydagi malikalarning hammasiga ham nasib qilmaydigan kundoshlarining farzandlarini tarbiyalashdek vazifaga erishib, buning o'z uddasidan chiqib Bobur oldida yana bir bor o'z o'rmini mustahkamlab oladi. U shahzodalarni o'z farzandidek ko'rib, ularni ajratmagan. Uning bu xususiyati Amir Temurning suyukli rafiqasi bo'lgan Bibixonimni eslatadi. Gulbadan va Hindol mirzolar Mohimbegimning tarbiyasini olganligi sababli uning fe'li va xulq-atvoridan Mohimbegim tarbiyasi yaqqol namoyon bo'ladi ". Dilbar shoir davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning va avlodlarining murakkab mashaqqatli hayot yo'lini haqqoniy darajada aks ettirgan Pirimqul Qodirov qalamiga mansub "Yulduzli tunlar" asarida ham Boburning farzandlarini mehr-oqibatli qilib tarbiyalayotganiga va uning uddaburonligiga tan berib :"Mohim, Siz mening benazir malagimsiz! Men shoh bo'lsam ham ulug' qalbingiz o'trusida qulmen!"-deydi.

Yana boshqa manbalardan ma'lumki, Bobur ko'p qiyinchiliklar ko'radi, bu so'ngsiz tashvishlardan charchagan Boburning ahvolini ko'rib xotini zodagon ayollarni uning huzuriga olib kelishini taklif beradi. Bobur bo'lsa bu taklifni rad etadi va xotinini izza qiladi. Bu temuriylar uchun odobsizlik va shu bilan birga ayoliga bo'lgan hurmatsizlik deb biladi. Gulbadanbegimning asaridan olingen parchada yana aytib o'tiladiki, u ayollarni naqadar e'zozlagani, sof insoniy qarashlari komil inson darajasida bo'lgani va samimiyligi to'g'risida aytildi. Bobur Hindistonni bosib olganidan so'ng, uning buyrug'i bilan Movarounnahr va Xurosondon beklar, mulozimlar va shu bilan birgalikda ayollar keladilar. Ular orasida Sulton Abu Said Mirzoning qizlaridan Gavharshodbegim, Fahri Juhon begim, Xadicha Sulton begim, Badiuljamol begim, Sultonbaxt begim va boshqa ayollar keladilar. Temuriyzoda ularni ehtirom bilan kutib olib, hisobsiz in'omlar beradi. Bundan tashqari yana bir so'zi keltirilgan :"Podshoh hazratlari Agra shahrida 4 yil turdilar. Har juma kuni ammalarini ko'rgani borar edilar, bir kuni havo nihoyatda issiq edi, onam hazratlari :"Bugun havo nihoyatda issiq agar juma kuni ko'rgani bormasangiz nima bo'ladi, begimlar bundan hafa bo'lmaslar" deb aytadi. "Onamga shunday javob qiladi Mohim sizdan bu javob chiqadi deb o'ylamagan edim.Ular o'z otasidan ayrilib bu yerga kelib o'tiribdilar, ulardan men xabar olmasam kim xabar oladi deb aytadi".Bu jarayonda Boburning ayollarga cheksiz ehtiromini ko'rish mumkin. Gulbadanbegim keltirgan misollar tarixchi ayol qarashlarida – Boburning ayollarni nihoyatda e'zozlagani aynan ayol kishi tomonidan aytligani diqqatni tortmasdan qolmaydi.

Boburga kelgan qiyinchiliklar uning yonidagi ayollarni ham chetlab o'tmadi. Boburning yaqinlari uni ko'rish uchun Hindistonga otlanar ekan, ular orasida Mohimbegim turli xil o'ylar va xomush holatda ketar edi. Jajji qizcha Gulbadanbegim Mohimbegimning o'kinch to'la ko'nglini qayg'udan biroz chalg'itish uchun turli xil latifalar va qiziq hangomalar aytib ketar edi. Otasi



barcha shahzodalar uchun sovg‘a-salomlar yuborib turgani haqida bilamiz. Lekin Boburning ham Gulbadanbeginning ham asarlarida podshohning bu jazzi qizaloq uchun biron narsa hadya etgani haqida so‘z yuritilmaydi. Gulbadanbegin otasidan biron hadya kutmagan bo‘lsa kerak padari buzrukvor yoniga yo‘l olish unga xuddiki xaj safarini ado etishdek hayajonli tuyular edi. Gulbadanbegin – kenja qizi musulmon sharqida yagona tarixchi ayol. Bobur qizini juda yaxshi ko‘rar edi. Qizi ham padari buzrukvorini juda qattiq hurmat qilgan.

Xonzodabegin ham Bobur kabi sultonzodaning opasi bo‘lishiga qaramay, sultanat qadri uchun uning ashaddiy dushmani Shayboniyxonga turmushga chiqishga rozi bo‘ladi va farzand ko‘rib, qarindosh – urug‘lardan uzoq vaqt yiroqda yashab, hattoki ukasini ko‘rishga kelganida uni tanimaydigan holatga kelib qolgan edi. Musofirchilikda yurgan Xonzodabegin boshidan juda ko‘p qiyinchiliklar, xo‘rliklarni kechiradi. Bobur suhl tuzib, Samarqanddan chiqib ketishiga opasi Xonzodabeginni Shayboniyxon nikohiga so‘raganiga noiloj rozi bo‘lganidan so‘nggina erishadi.

“Bobur – sadoqatli o‘g‘il,mehribon ota, sodiq do‘st, vafodor yor va g‘amxo‘r qarindosh edi”, deb yozadi – L. P. Sharma. Sharma yana shuni yozadiki, uning xotini bo‘lishiga qaramay ularning barchasini baravar hurmat qilardi, ularning ko‘nglini og‘ritmaslik uchun harakat qilardi va o‘g‘illarining ham hammasiga birdek mehr bilan qarardi. Faqatgina Bobur davridagi ayollar matonatli bo‘lishgan, desak yanglishgan bo‘lamiz va buni bir qancha dalillar bilan asoslab o‘tamiz. Xira Kunvari Boburning nabirasi Akbar podshoga turmushga chiqadi va ma’lum vaqt o‘tgach Islom dinini qabul qiladi.

Mariyam Uzzamoni begin nisabsini qabul qiladi va shu o‘rinda dinlarga erkinlik beradi. Boburiy malika Rana ham nomusulmon malika bo‘lishi bilan bir qatorda u hajga boruvchilar uchun o‘z hisobidan imtiyozlar yaratib beradi. Eng katta kemani yasattirib, Arab dengizi orqali hajga jo‘natadi. Kemaga Rahana deb nom beriladi. Bu ishlardan sulola vakillari davrida ayollar o‘rni ko‘rinib turibdi. Bu davrda san’at va madaniyat ham juda yaxshi rivojlangan. Zebunisobegin shoira, Gulbadanbegin muarrix sifatida emas, balki boshqa sohalarda ham munosib o‘rin egallagan. Ular ona sifatida farzandlarining barcha sohada ma’rifatli, ziyoli bo‘lishi uchun harakat qilganlar. Avrangzebning ahli ayollari Dilrozbonu barcha farzandlariga Qur’onni yod oldirgan.

Bobur siyosatini, asarlarini, shaxsiyatini hind xalqi ham tan oldi. Hind xalqining unga bo‘lgan mehr-muhabbati cheksiz edi va bu xalqning yo‘lboshchi bo‘lgan Javoharlal Nuru Bobur shaxsiyatiga va faoliyatiga yuqori baho berib.”Bobur dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko‘p yaxshi fazilarlarga ega bo‘lgan... Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, hayotda, me’morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi “, - deb yozgan edi. Hind xalqini boshqarishi albatta oson kechmadni. Bobur davlat siyosatini olish borishda kelishishga siyosatini olib bordi, va ularni birdek ko‘rdi Ularning udumlarini hurmat qildi, ayollarning ham hurmatini o‘z joyiga qo‘ydi. Bu bilan insoniy fazilatlar sohibi bo‘lganligini yana bir isbotladi.

.Bobur farzandlariga tarbiya berishda alohida e’tibor qaratganini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Undan keyingi avlodlari ham ayollarni hurmat qilganligini birgina Hindistondagi boburiylar sulolasining vakili Shoh jahon davriga oid me’moriy yodgorlik misolida ko‘rish mumkin. Agrar shahri yaqinidagi Jamna daryosi bo‘yida Shoh Jahon suyukli xotini Arjumandga (Mumtoz Mahal begin, Mumtoz Bibika Rauza nomlari bilan mashhur bo‘lgan) atab vafotidan so‘ng qurdirgan. Keyinchalik o‘zi ham shu yerga dafn etilgan. Suyukli xotini Arjumandga “Mumtoz Mahal” deb yangicha ism beriladi, buning asosiy sababi shundaki, u husn-u jamolda tengsiz malika edi.



LORACHEVSKY  
UNIVERSITY

**N** Новосибирский  
Государственный  
Университет  
настоящая наука

Новосибирский  
Государственный  
Технический Университет  
**НЭТИ**

**МФТИ**

Hindlarda z tovushi yo‘qligi sababli “mumtaj mahal” deb aytilgan. Malika va shahzoda 14 farzand ko‘rib, oxirgi farzand tug‘ilishi xosiyatsiz bo‘ladi.

To‘lg‘oq payti azobiga chidolmay, endigina o‘ttiz uch bahorini qarshilaganida dunyodan ko‘z yumadi. Shoh Jahon malika ko‘z yumishidan avval nima tilagi borligini, bir undan keyin boshqaga uylanmasligini va unga atab dunyoda tengi yo‘q qasr qurishini so‘rab qoladi”. Shoh Jahon suyukli xotinining vasiyatini mardonalaracha ado etishga harakat qiladi va buning uddasidan chiqadi. Toj Mahal deganda maftunkor yodgorlik ko‘z oldimizga kelgan bo‘lsa, ortidan u yerda o‘ttiz uch yoshida mangu uyquga ketgan malika timsoli ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bu yodgorlik Robinranat Tagorni ham hayratga solgan va u ikki qalb muhabbat uchun doston bitgan va u haqida :”Muhabbat ko‘zlaridan tomgan bir qatra yosh bo‘lib tushgan yerida qotib qolgan”-deya ta’riflagan.“Humoyunnoma”da keltirilgan :Bobur bino qurdirayotganida ayollarga xos qilib qurdirgan, ya’ni tokchalari soni, uy anjomalari, shu qatori temuriyzodalar foydalanadigan jihozlar, ayniqsa buyumlar tavsifi ham keltirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Hasan Qudratullayev:”Bobur armoni”- T.:”Sharq” n-2009 yil.
- 2.Turg‘un Fayziyev:”Temuriy malikalar”-T.:”Xalq merosi”n-1994 yil.
- 3.Zahiriddin Muhammad Bobur: ”Boburnoma”-T. :”Yulduzcha”n-1989 yil.
- 4.Pirimqul Qodirov:”Avlodlar dovoni”- T.:”Ilm-ziyo-zakovat” n-2020 yil.
- 5.Pirimqul Qodirov:”Yulduzli tunlar”-T. :”Sharq” n-2016 yil.
- 6.Margaret Rumer Goden:”Gulbadan”- T.:”Sharq”n-2007 yil.
- 7.Gulbadanbegim:”Humoyunnoma”-T.:”Ma’naviyat” n-1998 yil.



LORACHEVSKY  
UNIVERSITY



Новосибирский  
государственный  
университет  
настоящая наука



Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**

